



SHARQ VA G'ARB TARANNUMI BUYUK SIYMOLAR NAZDIDA

M.A. Ниязбекова

A.Навоий номидаги

Ўзбек тили ва адабиёти

университети магистранти

Annotatsiya.

Maqlada adabiyot, san'at va ilm-fan rivoji, buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g'oyalarga asoslangan boy ma'naviy merosining umumbashariy sivilizatsiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi to'g'risida fikr yuritilgan. G'arb madaniyatining Sharq tarixi, adabiyoti, san'atini bilishga ehtiyoji va qiziqishining ortib borayotganligi, barkamol avlodni tarbiyalashda jahon adabiyotining tutgan o'rni keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, adabiyot va san'at, ma'naviyat, gumanistik g'oyalar, meros, badiiy jarayon, sharq madaniyati, nemis adabiyoti, hamkorlik, adabiyotlararo munosabatlar.

Abstract. The development of literature, art and science, the contribution of the rich spiritual heritage of our great scientists, writers and thinkers based on high humanistic ideas to the development of universal civilization and culture, secular and religious science are considered. The growing need and interest of Western culture to know the history, literature, and art of the East, and the role of world literature in raising a mature generation are widely covered. Keywords: science, literature and art, spirituality, culture, humanistic ideas, heritage, artistic process, eastern culture, German literature, cooperation, inter-literary relations.

Adabiyot, san'at va ilm-fanimiz rivojiga alohida e'tibor berilayotgan bugungi kunda yosh avlodni buyuk allomalarimiz qoldirgan boy meros bilan tanishtirish



borasida samarali ishlar qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, qadimiylar va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g‘oyalarga asoslangan boy ma’naviy merosi umumbashariy sivilizatsiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgani dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e’tirof etilmoqda [1.1]. Jahon sivilizasiyatsining XVI asr oxiri va XVII asr boshlaridagi tarixiy- ijtimoiy taraqqiyoti G‘arb madaniyatining Sharq tarixi, adabiyoti, san’atini bilishga ehtiyoji va qiziqishining rivojlanishi bilan xarakterlanadi. G‘arb san’atining adabiyot, rassomchilik, musiqa va boshqa turlarida Sharq dunyosini aks ettirishning o‘ziga xos badiiy shakllari rivojlandi. G‘arbda Sharq madaniyatiga qiziqish sababli I.V.Gyotening «Faust», A.Dantening «Ilohiy komediya», 66 K.Marloning «Buyuk Temur», J.Bayronning «Sharq ohanglari», V.Gyugoning «Sharq she’riyati» kabi jahon adabiyoti durdonalari yaratildi. Jahon adabiyotida Al Beruniy, Jomiy, Farididdin Attor, Firdavsiy, Rumiy, Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ilmiy merosiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar vujudga keldi. Ularda buyuk ajdodlarimizning dunyo ilm-faniga, madaniyatiga, adabiyoti va san’atiga qo‘shgan yuksak hissasi yuqori baholangan. Shuningdek, olmon adabiyotida yaratilgan «G‘arb-u Sharq», «Ilohiynoma», «Qo‘shiqlar kitobi», «Ilm gulshanida», Annemariye Shimmelning «Islomning mistik me zonlari», «Ollohnning oyatlari», «Muhammadun Rasulloh», «Jonon mening jo nimda», «O‘rta asrlar oxirida Misrdagi xalifa va qozilar», «Sharq lirkasi», «Mavlono Jaloliddin Rumiy», «Yunus Imro bilan sayr», «Botinga sayohat», «Atirgul dengizi, sharob dengizi» va boshqa ko‘plab asarlari dunyo yuzini ko‘rdi. XVI asrning oxiridan XVII asrning boshlarigacha Navoiy asarlari italyan tilida 4 marta, nemis tilida 5 marta chop etildi. Bular orasida «Farhod va Shirin», «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Mahbub ul-qulub» asarlarining nemis tiliga o‘girilganlarini ta’kidlab o‘tish joizdir. Olimlarning ta’kidlashicha, bu tarjimalar orasida A.Kurellaning «Farhod va Shirin» dostoni



tarjimasi badiiy jihatdan yuksakligi bilan e'tiborga molikdir. Nemis olimi Alfred Kurella Navoiy ijodiga yuksak baho berib shunday deydi: «Buyuk novator Navoiyning dostonlari, ruboiy va epigrammalarida tarannum topgan ozod ruhga Gyote butun shodligini baxshida etgan bo'lar edi». Navoiy merosiga XIX asrdan boshlab fransuz sharqshunos olimlari ham qiziqish bildirganlar. Shuni g'urur va iftixor bilan aytish mumkinki, Alisher Navoiyning jahonshumul ahamiyatga molik boy merosidan Yevropa xalqlari ham bahramand bo'lishga tuyassar bo'lmoqdalar. Olimlarning qayd qilishicha, Alisher Navoiy ijodini chet el kitobxonlariga yetkazishda va targ'ib qilishda ingliz, nemis, fransuz, ispan, polyak, venger, chek, slovak tillarida chop etilayotgan «Lettr» («Adabiyot») jurnali alohida ta'kidlash joiz. Navoiy adabiy til katta san'atkorlik bilan tarannum etgan buyuk ijodkor, turkiy xalklar tili va adabiyotini jahon miqyosiga ko'tarib chiqa olgan daho adibdir. Buyuk Navoiyning boy merosi insoniyat tarixining barcha davrlari uchun xamohangdir. O'lmas dohiyona so'z-o'gitlari esa, hanuz insoniyatning ezgu ishlariga ko'mak berib kelmoqda. Ma'lumki, ulug' so'z sultonlari adabiy til rivojiga salmoqli hissa qo'shadilar. Bundan Navoiy va Gyotelar ham mustasno emas. Ularning asarlari so'z san'atining yuksak g'oyalar ifodalangan oliy namunasi bo'lishi bilan birga mukammal adabiy til namunasi hamdir. G'arbiy Yevropada Navoiy ijodi chuqur va jiddiy o'r ganilmagani bois, afsuski, yevropaliklar shoirning shaxsi va ijodini chuqur anglamagan. Natijada u haqda g'ayriilmiy qarashlar, noto'g'ri talqinlar ham bo'lgan. Bugungi kunda esa 67 Mir Alisher Navoiy Germaniyada «Hirotning baxti» yohud «Hirot boshiga qo'ngan baxt qushi» (Hofmann) deya etirof etilmoqda. Alisher Navoiy nafaqat turkiy xalqlarning buyuk mutafakkir shoiri, balki butun dunyo e'tirof etgan Sharq-u G'arb siyemosidir. Navoiyning «Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz» degan so'zlari zamirida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Hazrat Alisher Navoiy fikrlarining bugungi kun uchun ahamiyati va uning Prezidentimiz tomonidan yanada boyitilganligi ona tilimizga yanada e'tiborli bo'lishga undaydi. Buyuk bobomiz Navoiy merosi o'ziga xos ijod,



mahorat bulog‘idir. Bu buloqdan mahorat bilan foydalanish, uning go‘zalligini yozma va og‘zaki nutqimizda namoyon eta olish, boy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, nutq madaniyatiga e’tibor berish asosiy vazifalardandir. Demak, har birimiz yuqori til ma’naviyati va nutq madaniyatini egallah, savodxon, mahoratli va notiq bo‘lish, ta’sirchan yozish va gapira olish uchun Alisher Navoiy merosini chuqur o‘rganishimiz va o‘rgatishimiz zarur. Barkamol avlodning har tomonlama tarbiyasida ham eng muhim manbalardan biri Hazrat Navoiy merosidir. Zero, davlat tili haqidagi qonunning talabi ham shu – o‘zbek tilining mavqeini yanada ko‘tarish bilan uning ham yurtimizda, ham dunyo miqyosidagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaklikka olib chiqish, ajdodlar an’anasiga sodiq qolib, uning go‘zalligini keng namoyish qilish, boyitib borish, yuqori nutq madaniyatni va mahoratiga erishishdir. Nemis adabiyotining namoyondasi Iogann Volfgan Gyote (1749-1832) «Faust» va «G‘arb-u Sharq devoni» kabi olamshumul durdoni asarlar muallifi. U nemis adabiyotining vakili bo‘lishi bilan birga umuminsoniy adabiyotning ham yorqin timsolidir. Shuning uchun ham adabiyotlararo munosabatlar jihatidan qunt bilan o‘rganilmoqda. Gyote ijodiyotini o‘rganishda jahon adabiyoti hayotiy sharoit hisoblanadi. «Jahon adabiyoti» tushunchasini Gyote bиринчи мarta 1827 yilda tavsif etadi, bu paytda Gyote estetikasida jahon badiiy jarayonini anglash ancha yuqori darajaga ko‘tarilgan edi. Gyote uchun Sharq madaniyatini anglash – bu qiyin, ko‘p qirrali va ayni vaqtida yoqimli, sevimli jarayondir. Uni na jo‘g‘rofiy, na etnik-ijtimoiy psixologik, na diniy cheklovlar tashvishga soladi, aksincha, bular unga huzur bag‘ishlaydi. Ijodiy jarayonga hamkorlik qilgan dalillar to‘g‘risida gapirar ekan, Gyote ta’kidlaydiki, ular baxtiyorlik tuyg‘usining jonlanishiga va tobora kuchayib borishiga imkon beradi, sof tuyg‘uga ega bo‘lgan har odam «Devon»ni mutolaa qilganida xuddi shunday kayfiyatga beriladi». Gyote tarjima ishiga ham alohida ahamiyat beradi. Ma’lumki, tarjima – bu adabiyotlar o‘rtasida adabiy vositadir. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ikki buyuk mutafakkirlar ma’naviyat va zakovatni hamma narsadan ustun qo‘yuvchi shaxsning tiklanishi va kamol topishi



68 haqida ko‘plab afsonalar yaratilishi uchun bitmas-tuganmas manba hamda adabiy aloqalar ko‘prigi sifatida xizmat qiladi. Ular ushbu adabiy vazifalarni hal etishda Sharq-u G‘arb durdonalari, qadriyatlari va yutuqlariga murojaat qildi. Adabiyotlar: 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlарini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-3721-sonli qarori. Xalq so‘zi. 2018-y. 15-may. 2. Алишер Навоий ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. Илмий-назарий анжуман маърузалари тезислари. – Тошкент: Фан, 2001. 3. Navoiyning nemis tarjimoni. Qiyosiy tilshunoslik va tarjima nazariyasi muammolari. – Тошкент: 2007. 4. Abdullayeva R. Nemis – o‘zbek adabiy aloqalarining shakllanishi, taraqqiyot tarixi va ilmiy asoslari. Фил. фан... (PhD) дисс. автореф. – Toshkent, 2022. – 51 б.